

## AHOLINING EHTIYOJMAND TOIFASIDAGI SHAXSLAR VA DUNYO MIQYOSIDA ULARGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR HAQIDA

**To'lqinova Visola Ulug'bek qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti, Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi.

**E-mail:** [visolatolqinova05@gmail.com](mailto:visolatolqinova05@gmail.com), Tel: 998946507277.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11246062>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismi va ularga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so'z boradi. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida mazkur toifa huquqlari qay darajada mustahkamlanganligi, ularga davlat tomonidan to'lanadigan ijtimoiy himoya miqdori haqida ma'lumot berilgan. Mamlaktimizda qonun bilan belgilab qo'yilgan ehtiyojmand toifa huquq va erkinliklari bilan chet mamlakatlar, jumladan Qozog'iston Respublikasi, Indoneziya, Avstraliya va Ukraina davlatlarida mazkur toifa huquqlarining qiyosiy jihatdan tahlili bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ehtiyojmand toifa, huquq, sharoit, rivojlanish, tenglik, nogironligi bo'lgan shaxslar, nafaqa, ijtimoiy himoya, ekinlik.

## ABOUT PEOPLE IN NEED AND THE OPPORTUNITIES CREATED FOR THEM WORLDWIDE

**Abstract.** This article talks about the part of the population in need of social protection and the opportunities created for them. Also, to what extent the rights of this category are strengthened in the legislation of Uzbekistan, information is provided about the amount of social protection paid to them by the state. A comparative analysis of the rights and freedoms of the needy category established by law in our country in foreign countries, including the Republic of Kazakhstan, Indonesia, Australia, and Ukraine, is described.

**Key words:** needy category, rights, conditions, development, equality, persons with disabilities, benefits, social protection, agriculture.

## О НУЖДАЮЩИХСЯ ЛЮДЯХ И ВОЗМОЖНОСТЯХ, СОЗДАНЫХ ДЛЯ НИХ ПО ВСЕМУ МИРУ

**Аннотация.** В данной статье говорится о части населения, нуждающейся в социальной защите, и о возможностях, созданных для них. Также, насколько права данной категории закреплены в законодательстве Узбекистана, представлена информация о размерах социальной защиты, выплачиваемых им государством. Описан сравнительный анализ прав и свобод категории нуждающихся, установленных

законодательством нашей страны в зарубежных странах, в том числе в Республике Казахстан, Индонезии, Австралии и Украине.

**Ключевые слова:** нуждающаяся категория, права, условия, развитие, равенство, инвалиды, льготы, социальная защита, сельское хозяйство.

---

Rivojlangan davlatning asosiy tarkibiy qisimlaridan biri inson huquq va erkinliklari, shuningdek ular uchun munosib turmush sharoitlarini ta'minlashdan iborat. Ushbu sabab tufayli davlatlar har doim o'z fuqarolarining jinsi, irqi, millati, tili, dini va ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar tenglik yaratishda harakat qilib kelmoqda.

**“Nega ko'plab rivojlanishni maqsad qilgan davlatlar aynan tenglik yaratishga harakat qiladi”** kabi savollarga javob sifatida shuni ayta olamizki, buning asosiy sabablaridan biri dunyo miqyosida aholi o'rtasida turli xil kamsitilishlarga yo'l qo'ymaslik, ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar o'z huquq va erkinliklarini hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirish imkoniyati qay darajada ta'minlanganligi xalqaro tashkilotlar tomonidan baholanib borilmoqda. Bu esa o'z o'rnida davlatlarda inson kapitalini rivojantirishga e'tibor berishni talab qiladi.

Yuqorida ta'kidlangan aholining alohida ehtiyojmand toifalari ya'ni nogironligi bo'lgan va boshqa toifa shaxslarning ijtimoiy himoyasi, ular uchun normal turmush sharoitini ta'minlash bugungi kunda davlatlarning rivojlanish dasturlarida eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Shu sababli bu toifaga kiruvchi shaxslar e'tiborga olinib, ularning huquq va erkinliklariga doir normalar har bir davlat tomonidan o'z qonunchilik tizimida munosib mustahkamlanmoqda. Bu islohotlar esa ehtiyojmand toifadagi shaxslar aholi har doim davlatlar e'tiborida ekanliklarni anglatadi.

Bugungi kunning dolzarb mavzusi bo'lgan aholining ehtiyojmand toifalari misol tariqasida mamlakatimizda aholining qanday qatlami kirishi haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, ushbu toifaga kiradigan shaxslar deb ko'plab shaxslar mavjud bo'lib ularning aniq toifalar O'zbekiston Respublikasining **“Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risidagi”** qonuning **6-moddasida** aniq belgilanib qo'yilgan:

**Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari:**

• *O'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashovchi keksalar.*

• *I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, nogironligi bo'lgan bolalar.* ( O'zbekistonda 782 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxs pensiya va nafaqa oladi (aholining 2,4 foizi). Shundan, 376 ming nafari I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hisoblanadi.)

• *Muomalaga layoqatsiz va muomala layoqatli cheklangan fuqarolar.*

• *Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar.*

• *Yetim bolalar va ota-ona qarmog'idan mahrum bo'lgan bolalar aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridir.*

***Ushbu toifadagi shaxslar dunyo davlatlari aholisining necha qismini tashkil etishi haqida statistik ma'lumotlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak,*** Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining qariyb 16 foizi, ya'ni butun dunyo bo'ylab 1,3 milliarddan ortiq kishi nogironlikning qaysidir shakliga ega va qo'shimcha 190 million kishi (15 yoshdan oshgan odamlarning 3,8 foizi) ishlashda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda, odatda kundalik ravishda AQSHda 61 million yoki 26 foiz katta yoshli amerikalik nogironlikning qaysidir shakliga ega va 65 yoshdan oshgan har 5 kattadan 2 nafari nogironlikka ega shaxs sifatida qayd etilgan. Xabar qilinishicha, Yevropa Ittifoqida 65 yoshdan oshgan barcha odamlarning yarmiga yaqini nogironlikning qaysidir shakliga ega bo'lib, ularga nisbatan e'tiborsizlik, qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'lish, zo'ravonlik va qashshoqlik xavfi tobora oshib bormoqda. Suning uchun ham xalqaro tashkilotlar ushbu muammoni hal etish va tenglik yaratish maqsadida bir qancha islohotlarni amalga oshirmoqda.

Yuqorida qayd etilgan mazkur toifalar yashashi, jamiyat hayotida erkin ishtirok etishi, boshqalar tomonidan kamsitilmasligi, insonning ajralmas huquqlaridan erkin va to'la foydalanishi uchun butun dunyoda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu davlatlarga misol qilib rivojlanish jihatdan eng yuqori o'rinlarda turmasada, lekin sezilarli darajada bu sohada namuna bo'layotgan mamlakatlar, jumladan, qo'shni davlat hisoblangan ***Qozog'iston Respublikasi***, shuningdek, ***Indoneziya, Avstraliya va Ukraina*** davlatlarini olishimiz mumkin. O'rta Osiyoda o'zining o'rniga ega bo'lgan Qozog'iston Respublikasi ehtiyojmand qatlamni huquqlarini ta'minlash maqsadida, birinchi navbatda, o'z konstitutsiyasida ushbu toifa uchun alohida bob va moddalar kiritgan. Qo'shimcha ma'lumot sifatida Qozog'iston Respublikasi Prezidenti K.K.Tokayev 2019-yil 2-sentabrda "**Murojaatni ijtimoiy modernizatsiya qilishning yangi bosqichining bir qismida nogiron bolalari bor oilalarga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi**", rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, nogiron sifatida **80 mingdan ortiq** bolalar ro'yxatga olinganligini va ularga tenglikni, aqlan rivojlanishi va yashashi uchun barcha sharoitlarni yaratish bo'yicha bir qator ko'rsatmalar berilgan. Albatta, bu muammoni

davlat siyosati darajasida e'tirof etishi bilan odamlarning barcha hal etilmagan muammolariga e'tibor qaratish zarurligi yuzasidan topshiriqlar berdi va bundan biz Qozog'iston Respublikasida ham boshqa rivojlangan davlatlar qatori aholining ehtiyojmand toifasi huquqlarini ta'minlash bo'yicha juda muhim ishlar amalga oshirilayotganligi va davlat har doim ular haqida g'amxo'rlik qilayotganligini bilishimiz mumkin.

Xuddi shunday ishlar **Indoneziya** va **Avstraliyada** ham amalga oshirilgan bo'lib bu davlatlar ya'ni Indoneziya va Avstraliya davlatlari nogironlar huquqlari to'g'risida konvensiyani imzoladilar va ratifikatsiya qildilar. Ushbu harakat ikki davlat yuritayotgan siyosatida nogironlar uchun siyosiy huquqlarni amalga oshirish majburiyatlarini kuchaytirish uchun yangi ustuvor vazifa sifatida baholandi. **Konvensiyaning 29-moddasi** barcha davlatlarni nogironlarning siyosiy sohada samarali va to'liq ishtirok etishi, shu jumladan, saylovda ovoz berish huquqi va imkoniyatlarni ta'minlashga chaqiradi. Barcha shtatlar saylovda ovoz berish tartib-qoidalari, jihozlar va materiallar mos, qulay va tushunarli, shuningdek ulardan foydalanish oson bo'lishini ta'minlashi kerak. Ushbu konvensiya Indoneziya va Avstraliyada nogironlar uchun ovoz berish huquqlarining amalga oshirilishini ko'proq o'rganish va taqqoslashga qaratilgan asosiy hujjat hisoblanadi.

*Shuningdek, ikkala mamlakatning ham Konvensiyaga asoslangan ichki qonunlarida ovoz berish huquqining tartibi va mexanizmi haqidagi savollarga javob esa,* Indoneziya yoki Avstraliyada nogironlarning ovoz berish huquqlarini himoya qilish uchun qulay va umumijburiylik xususiyatiga ega qonunlar ishlab chiqilgan va bunda ma'lum jihatlarga ko'ra, Avstraliyadagi qoidalar Indoneziyaga qaraganda ancha ilg'or va innovatsion hisoblanadi.

Shuningdek g'arb mamlakatlari bo'lgan Ukrainada ham *«Про забезпечення соціальної безпеки осіб з інвалідністю у сфері трудових відносин»* (Mehnat munosabatlari sohasida nogironlarning ijtimoiy ta'minotini ta'minlash to'g'risidagi) gi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilishni taklif qilishadi, Ushbu taklif etilayotgan qonun loyihasining 1-qismining 1-bandiga yangi xatboshi qo'shishni taklif qiladi. *“Про Кабінет Міністрів України”* (Ukraina Vazirlar Mahkamasi to'g'risida) Ukraina Qonunining 20-moddasida ushbu yangi bandda aholi, xususan, nogironlar uchun ijtimoiy himoya darajasini oshirishga qaratilgan strategiya va konsepsiyalar loyihalarini tasdiqlash bilan bog'liq hukumatning vazifalari belgilab qo'yildi.

Ushbu davlatlar qatori o'zimizning mamlakatimiz O'zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifa uchun ko'plab qonunlar va yangi islohotlar amalda namoyon bo'lmoqda. Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasining *“Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida”gi, “Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining*

*boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida*”gi qonunlar, shuningdek *“Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida*”gi Prezident farmonlari qabul qilingan va qo'shimcha sifatida mamlakatimizda ehtiyojmand qatlam uchun toifasiga muvofiq pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy yordamlar muntazam ravishda qonunga muvofiq berib borilmoqda.

Asos sifatida *O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida*” gi qonunga muvofiq har bir toifa uchun ma'lum miqdorda pul miqdorlari belgilangan.

Bularga:

➤ *Nogironlik pensiyalari, (Nogironlik pensiyalari qonunchilikda belgilangan tartibda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar deb topilgan shaxslarga, shuningdek Chernobil AESdagi avariya tufayli mayib bo'lish yoki kasallik oqibatida III guruh nogironligi bo'lgan shaxslar deb topilgan shaxslarga tayinlanadi) eng kam miqdori — oyiga 698 000 so'm.*

➤ *Muomalaga layoqatsiz va muomala layoqatli cheklangan fuqarolar - oyiga 500.000 so'm.*

➤ *O'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashovchi keksalar-621.000 so'm* miqdordagi pul summalari bilan ta'minlanadilar, shuningdek bu toifa fuqarolar uchun alohida *ijtimoiy yordam markazlari* o'z faoliyatini olib borishlari bunday toifadagi qatlam uchun o'z muammolarini tez va osonlik bilan hal qilish imkoniyatlarni berayotganligini bildiradi.

Demak, aholining ehtiyojmand qatlamlari o'z huquq va erkinliklari haech qanday to'sqinliksiz amalga oshira olishlari hamda jamiyatda boshqa aholi qatlami kabi barcha imkoniyatlardan va ijtimoiy ta'minotlarda hech qanday qarshiliksiz foydalanishlari qonun bilan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Bu normalar ijrosi tegishli vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi va ehtiyojmand toifalarning huquqlari davlat tomonidan muhofaza etiladi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining [“Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risidagi”](#) farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining [“Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”](#)gi qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining "Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risidagi" qonuni.
4. Qozog'iston Respublikasi konstitutsiyasi.
5. Ukraina Respublikasi «Про забезпечення соціальної безпеки осіб з інвалідністю у сфері трудових відносин» (Mehnat munosabatlari sohasida nogironlarning ijtimoiy ta'minotini ta'minlash to'g'risidagi ) qonuni
6. Ukranina Respublikasi "Про Кабінет Міністрів України" (Ukraina Vazirlar Mahkamasi to'g'risida)gi qonuni